


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI O'RNI	200
Safaraliyev Suyun Sheraliyevich	
RESEARCH AND DESIGN OF ANAEROBIC REACTORS FOR EFFECTIVE FERMENTATION OF AGRICULTURAL RESIDUE	204
Dilbar Ramazonova	
"TARMOQLARDAN FOYDALANISH" BOBINI O'QITISHDA MUALLIFLIK TA'LIM PLATFORMASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	209
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchov	
RAQAMLI MARKETING PLATFORMALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	216
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH JARAYONLARINING AMALDAGI HOLATI	223
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich	
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLIL AMALIYOTINING MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	232
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi	
SURXONDARYODA YASHIL TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	240
Mamatov Sardor, Rashidova Nargiza	
XORIJIY MAMLAKATLARDA UY-JOY NARXLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH Tajribasi... ..	246
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
TOMORQA XO'JALIKLARI FAOLIYATIDAN KELADIGAN DAROMADLARNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING ROLI	252
U.U. Nurullayev	
ECONOMIC EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN WAREHOUSE OPERATIONS.....	257
Abdulazizova Shakhrixoda Azizbek kizi	
IXTISOSLASHUV VA KONSENTRATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA SUT MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING SAMARADORLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	262
Sherbekova Ariuxan Rashidovna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KAPITAL TARKIBINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARIGA TA'SIRI TAHLILI.....	266
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
ОПТИМИЗАЦИЯ РЕЖИМОВ ВЫРАБОТКИ КИСЛОРОДА И СЖАТОГО ВОЗДУХА ДЛЯ СНИЖЕНИЯ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ЧЕРНОВОЙ МЕДИ.....	271
T.C. Kamalov, X.T. Tashева, D.A. Ishanova, U.I. Ablyayev	
SOLIQ SIYOSATINING INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI.....	279
Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Zarif Oripovich Axrorov	
SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISH VA JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	284
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA RISKLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	291
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
VIRTUAL REALLIK SAHNALARIDA KO'P ISHTIROKCHILI HOLISTIK HARAKATNI REAL VAQT REJIMIDA KUZATISH VA KO'P AGENTLI SKELETNI RETARGETING QILISH.....	297
Abdusamatov Abdurasul Abduqahhor o'g'li	
O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORIDA FINTEX VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGI.....	304
Karimova Nurjahan Olim qizi	
MAHALLIY AMALIYOTDA MOLIYAVIY..... HISOBOTNI SOXTALASHTIRISHNING ENG KENG TARQALGAN SHAKLLARINI TAHLIL QILISH	311
Xusanov Shuxrat Burxanovich	
TIJORAT BANKLARIDA XALQARO PUL O'TKAZMALARI BILAN BOG'LIQ MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH YO'LLARI.....	318
Eshmamatov Davlat Nuriddinovich	
QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY TAHLILI	325
Buriyev Sherzod Ahadovich	



TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYA INVESTITSİYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING OMILLARI VA MEXANIZMLARI	329
Sarimsafov Sherzod Xamidovich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDAGI KORXONALARNING STRATEGIK RIVOJLANISHINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
Rasulov Baxtiyor Bahodirovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING YANGI BOSQICHLARI.....	342
Abduraxmonov Shohruh, Xalmatjanov Farhod	
DEVELOPMENT OF AN INTEGRATED ESG-BASED FRAMEWORK FOR ASSESSING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	347
Hatidje Nasirova	
FROM CITY ASSETS TO PRODUCTIVE JOBS: AN EVENT-HISTORY FRAMEWORK FOR DIAGNOSING URBAN GROWTH CONSTRAINTS IN HISTORICAL CITIES	353
Azizbek Zaxidov	
AGROTURIZM, GEOTURIZM VA ASTROTURIZM OBYEKTLARIGA TALABALAR EKSPEDITSİYALARINI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI	360
Xoshimov Shoxruh G'ulomovich	
PKN 30% KOMPLEKS KIMYOVIY QO'SHIMCHADAN FOYDALANISHDA BETON TARKIBINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	367
B.Q. Mirzayev, Pulatova Shahzoda	
BESHINCHI INDUSTRIAL INQILOB DAVRIDAGI TEKNOLOGIK YECHIMLARNING O'ZARO UYG'UNLIGI... 374	
Shukurov Jaxongir Sa'dulla o'g'li	
FROM AI AVATARS TO ONE-CLICK CHECKOUT: ALGORITHMIC PERSUASION AND IMPULSIVE MARKETPLACE PURCHASING IN UZBEKISTAN	378
Rano Balkhiboeva Davron qizi	
TURLI IQLIM SHAROITLARIDA BINOGA INTEGRATSIYALASHGAN SHAFFOF FOTOVOLTAIK TIZIMLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGI VA ULARNI O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	389
Akromjon Boboyev, Odilbek Dexqonboyev	
OZIY-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQUVCHI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING STRATEGIK RAQOBATBARDOSHLIGINI RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH....	397
Nodira Abdulxamidova Abdurashitovna	
O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDO VA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI AGROEKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH: QOVUN EKSPORTINING YEVROPA ITTIFOQI BOZORLARIGA CHIQUV IMKONIYATLARI	404
Raximov Feruz Uyg'unovich	
JIZZAX VILOYATIDA TURISTIK JOYLASHTIRISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	415
Mamadiyorov Adhamjon Qo'chqar o'g'li	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHNING INFRATUZILMAVIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	423
Madirimov San'at Rajabovich	



RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHNING INFRATUZILMAVIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Madirimov San'at Rajabovich

mustaqil izlanuvchi

Abstract. This article examines the infrastructure supporting small business development in Uzbekistan under digitalisation and identifies directions for its improvement. Using systemic, comparative, dynamic, structural and institutional analysis, the study evaluates small-business trends in GDP contribution, investment, services and exports during 2021–2025. The findings show that the absolute economic scale of small business has expanded rapidly, while further development opportunities remain in digital capabilities, financial instruments, business services, market and logistics infrastructure, and data exchange. The article proposes an integrated infrastructure-support model built around the sequence “digital business profile and diagnostics – targeted financial and service package – market and logistics integration – skills and innovation – outcome monitoring”. The model is designed to coordinate public and private services through interoperable data exchange, targeted support and outcome-based KPIs, thereby converting digital access into productivity, formalisation, market expansion and sustainable small-business growth.

Keywords: small business, digitalisation, infrastructure support, digital infrastructure, financial infrastructure, business services, digital platform, digital skills, logistics, productivity.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda raqamlashtirish sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishning infratuzilmaviy ta'minoti holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tizimli, qiyosiy, dinamik, tarkibiy va institutsional tahlil asosida 2021–2025-yillarda kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot, investitsiya, xizmatlar va eksportdagi dinamikasi baholangan. Natijalar kichik biznesning mutlaq iqtisodiy hajmi jadal kengayayotgan bir paytda raqamli ko'nikmalar, moliyaviy vositalar, servis xizmatlari, bozor-logistika infratuzilmasi va ma'lumotlar integratsiyasini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Tadqiqotda “raqamli profil va diagnostika – moliyaviy va servis paket – bozor-logistika integratsiyasi – ko'nikma va innovatsiya – natijadorlik monitoringi” zanjiriga asoslangan integratsiyalashgan infratuzilmaviy ta'minot modeli taklif etilgan. Model davlat va xususiy servislarni ma'lumotlar almashinuvi, manzillilik va natijaviy KPilar asosida uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, raqamlashtirish, infratuzilmaviy ta'minot, raqamli infratuzilma, moliyaviy infratuzilma, biznes-servislar, elektron platforma, raqamli ko'nikmalar, logistika, unumdorlik.

Аннотация. В статье исследованы состояние инфраструктурного обеспечения развития субъектов малого бизнеса Узбекистана в условиях цифровизации и направления его совершенствования. На основе системного, сравнительного, динамического, структурного и институционального анализа оценена динамика малого предпринимательства за 2021–2025 годы по показателям вклада в ВВП, инвестиций, услуг и экспорта. Результаты показывают, что при быстром росте абсолютных экономических масштабов малого бизнеса сохраняются значительные возможности для дальнейшего развития цифровых компетенций, финансовых инструментов, бизнес-сервисов, рыночно-логистической инфраструктуры и обмена данными. Предложена интегрированная модель инфраструктурного обеспечения, основанная на последовательности «цифровой профиль и диагностика – финансовый и сервисный пакет – рыночно-логистическая интеграция – навыки и инновации – мониторинг результатов». Модель ориентирована на согласование государственных и частных сервисов на основе адресности, межсистемного обмена данными и результативных KPI.

Ключевые слова: малый бизнес, цифровизация, инфраструктурное обеспечение, цифровая инфраструктура, финансовая инфраструктура, бизнес-сервисы, электронная платформа, цифровые навыки, логистика, производительность.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish masalasi faqat korxonalarning internet, dasturiy ta'minot yoki elektron to'lovlardan foydalanishi bilan chegaralanmaydi. Kichik biznesning raqamli transformatsiyasi internet va ma'lumotlar infratuzilmasi, moliyaviy resurslarga kirish, maslahat va biznes-servislar, elektron savdo va logistika, inson kapitali hamda davlat xizmatlarining o'zaro bog'langan tizimini talab qiladi. OECD kichik va o'rta korxonalarning raqamlashtirilishi unumdorlik, innovatsiya va bozorga chiqish imkoniyatlarini oshirishini, biroq kichik firmalarda moliya, ko'nikma va boshqaruv resurslarining cheklanganligi raqamli tafovutni kuchaytirishini ta'kidlaydi [1]. Empirik tadqiqotlar ham raqamlashtirish natijasi texnologiyaning o'zi emas, balki uni korxona resurslari va boshqaruv amaliyotlari bilan uyg'unlashtirishga bog'liqligini ko'rsatadi [2; 3].

Kichik biznes uchun raqamli transformatsiya alohida murakkablikka ega. Dörr va hammualliflar 75 ta ilmiy ishni tizimlashtirib, kichik biznesning raqamli transformatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarni tashqi muhit, korxona ichki imkoniyatlari va boshqaruv e'tibori bilan bog'laydi [4]. Sagala va Öri raqamli transformatsiya muvaffaqiyatini texnologiya, strategiya, inson kapitali, tashkiliy moslashuv va ekotizim omillarining birgalikdagi ta'siri sifatida baholaydi [5]. 4 531 ta kichik va o'rta korxona ma'lumotlariga tayangan Restrepo-Morales va hammualliflar esa moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, investitsiya xarajatlari, malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik va texnologiya yetkazib beruvchilar haqidagi axborotning mavjudligini muhim omillar sifatida aniqlagan [6]. Mazkur xulosalar infratuzilmaviy ta'minotni faqat "aloqa infratuzilmasi" sifatida emas, balki kichik biznesning raqamli o'zgarishini ta'minlovchi ko'p komponentli iqtisodiy tizim sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

O'zbekistonda raqamli talabning bazaviy infratuzilmasi jadal kengaymoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–avgustida internetdan foydalanuvchi aholi ulushi 94,2 foizga yetgan; bu ko'rsatkich 2021-yilda 76,6 foiz bo'lgan [7]. Yuqori internet qamrovi xususiy sektorda raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun muhim asos yaratadi. OECD O'zbekistonda internetga kirish, uning sifati va maqbulligi sezilarli yaxshilanganini, shu bilan birga firmalarda raqamli vositalarni o'zlashtirishni yanada kengaytirish hamda menejerlar va xodimlarning raqamli va komplementar ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini qayd etadi [8].

Masalaning ikkinchi tomoni fizik va bozor infratuzilmasi bilan bog'liq. Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha 2025-yilgi Iqtisodiy memorandumida elektr energiyasi va transport infratuzilmasini izchil modernizatsiya qilish biznes xarajatlarini kamaytirish va hududlararo bog'liqlikni yaxshilashga xizmat qilishi, shuningdek, kichik va o'rta biznes uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda muqobil moliyaviy vositalarni rivojlantirish muhimligi ko'rsatilgan [9]. Demak, raqamlashtirish sharoitida kichik biznes infratuzilmasi "raqamli" va "an'anaviy" segmentlarga bo'linmaydi; aksincha, ular yagona qiymat yaratish zanjirida bir-birini to'ldiradi.

2025-yil yakunlari kichik tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyotidagi salmog'i katta ekanini ko'rsatadi. 2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari 1 201,6 ming tani tashkil etgan, 2025-yil davomida 82,4 mingta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan. Shu yilning o'zida kichik tadbirkorlik subyektlari yaratgan YAIM hajmi 923,5 trln so'mga, asosiy kapitalga investitsiyalar 362,9 trln so'mga, xizmatlar hajmi 595,1 trln so'mga va eksport hajmi 12,4 mlrd AQSH dollariga yetgan [10]. Bunday miqyos infratuzilmaviy ta'minot samaradorligidagi har qanday o'zgarishning makroiqtisodiy natijasi ham sezilarli bo'lishini anglatadi.

Moliyaviy infratuzilma ham raqamli shakllarga o'tmoqda. Markaziy bank hisobotiga ko'ra, 2025-yilda banklar uy xo'jaliklari va biznesga jami 390 trln so'mlik kredit ajratgan, shundan 60 foizi biznes subyektlariga to'g'ri kelgan; yil yakunida biznes kredit portfeli 384 trln so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, faktoring xizmatlari hajmi 9,5 trln so'mga yetib, uning 46 foizi yoki 4,4 trln so'mi raqamli faktoring orqali amalga oshirilgan [11]. Ushbu raqamlar butun biznes segmentiga tegishli bo'lib, ularni faqat kichik biznesga ajratilgan mablag' sifatida talqin qilish mumkin emas. Biroq ular moliyaviy infratuzilmaning raqamli kanallar orqali chuqurlashayotganini ko'rsatadi.

Davlat siyosatida ham kichik biznesni moliyaviy, institutsional va raqamli qo'llab-quvvatlash elementlari bosqichma-bosqich kengaytirildi. PF–193-son Farmon bilan kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari tizimi takomillashtirildi [12]; PQ–366-son qarorda tadbirkorlikni o'qitish, moliyalashtirish va kuzatib borish xizmatlarini elektron platformalar orqali bog'lash vazifalari belgilandi [13]; PQ–312-son qaror bilan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" dasturining mexanizmlari yanada rivojlantirildi [14]. PF–50-son Farmonda 2025-yil uchun kichik va o'rta biznesning YAIM, sanoat, eksport va bandlikdagi ulushini oshirish, biznesning yiriklashuvini rag'batlantirish kabi maqsadlar belgilangan [15]. PF–176-son Farmon esa 2026–2027-yillarda 4 trln so'mlik moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali 5 mingta tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi [16].

Shu bilan birga, mavjud institutlar va dasturlarni kichik biznes ehtiyojlari nuqtai nazaridan yanada o'zaro integratsiyalash hamda ularni yagona, uzluksiz infratuzilmaviy xizmat zanjiri asosida rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Biznes ehtiyojini aniqlash, tegishli moliyaviy vositani tanlash, maslahat olish,



bozorga chiqish, logistika va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini o'zaro muvofiqlashtirish ushbu tizimning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shundan kelib chiqib, tadqiqotning ilmiy muammosi raqamlashtirish sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning infratuzilmaviy ta'minotini ma'lumotlar, xizmatlar va natijalar bo'yicha integratsiyalashgan tizim sifatida takomillashtirishning iqtisodiy mexanizmini asoslashdan iborat. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish dinamikasi va amaldagi infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda raqamli integratsiya, manzillilik va natijadorlikka asoslangan takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni raqamlashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda birinchi yondashuv resurs va qobiliyatlar konsepsiyasiga tayangan. Eller va hammualliflar kichik korxonalarning raqamlashtirilishiga IT resurslari, xodimlarning ko'nikmalari va raqamli strategiya ta'sirini empirik baholab, raqamlashtirish bilan korxona natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi [2]. Li va hammualliflar esa kichik biznes tadbirkorining raqamli imkoniyatlarni sezish, ularni safarbar qilish va biznes modelini qayta tashkil etish qobiliyatini transformatsiyaning markaziy sharti sifatida talqin qiladi [3]. Ushbu yondashuv infratuzilmadan foydalanish imkoniyati bilan undan iqtisodiy qiymat yaratish qobiliyatini farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchi yondashuv raqamli transformatsiyani ekotizim va tashqi infratuzilma bilan bog'laydi. Kichik korxona ichki resurslar bilan cheklanganligi sababli bulutli servislar, platformalar, tashqi konsalting, moliya, logistika va hamkorlik tarmoqlari uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Dörr va hammualliflar raqamli transformatsiya omillarini kompleks tasniflashda tashqi muhit va biznes ekotizimiga alohida o'rin beradi [4]. Sagala va Öri tomonidan o'tkazilgan tizimli sharh ham texnologik infratuzilma, inson kapitali, boshqaruv, madaniyat va tashqi hamkorlikni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan muvaffaqiyat omillari sifatida ko'rsatadi [5].

Uchinchi yo'nalish raqamli platformalarni bozorga kirish va masshtablanish infratuzilmasi sifatida tahlil qiladi. Cenamor, Parida va Vincnet raqamli platforma qobiliyati kichik va o'rta korxonalarning tarmoq imkoniyatlari va ambidekstrligini kuchaytirib, raqobat ustunligiga xizmat qilishini asoslaydi [17]. Elia va hammualliflar raqamli texnologiyalar va tegishli qobiliyatlar transchegaraviy elektron savdoda kichik firmalarning eksport faoliyatini kengaytiruvchi resursga aylanishini ko'rsatadi [18]. Shu nuqtai nazardan, elektron savdo va B2B platformalariga ulanishni faqat marketing kanali emas, balki bozor infratuzilmasining yangi shakli sifatida qarash maqsadga muvofiq.

To'rtinchi yondashuv raqamlashtirishning institutsional va inson kapitali komponentlarini ustuvor deb biladi. OECDning O'zbekiston bo'yicha tahlilida xususiy sektor uchun raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishda institutlar vakolatlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada muvofiqlashtirish imkoniyatlari, shuningdek, firmalarga raqamli transformatsiyani boshlash bo'yicha amaliy yo'naltirishni kuchaytirish zarurati qayd etiladi. Hisobotda kichik biznes uchun ko'nikmalarni baholash vositalari, xabardorlikni oshirish va "one-stop-shop" formatidagi qo'llab-quvvatlashni kengaytirish tavsiya qilingan [8]. Bu xulosa infratuzilmaviy ta'minotning tashkiliy integratsiyasi raqamli ulanishning o'zi kabi muhim ekanini ko'rsatadi.

Jahon bankining O'zbekistondagi Digital Inclusion Project loyihasi hududlarda IT-enabled services markazlarini tashkil etish, raqamli ko'nikmalar va ish imkoniyatlarini kengaytirish orqali raqamli iqtisodiyotdan foydalanishni chuqurlashtirishga qaratilgan [19]. OECDning O'zbekistondagi biznes muhiti bo'yicha tahlili ham raqamli infratuzilma va ko'nikmalarni xususiy sektor raqobatbardoshligi bilan bog'laydi [20]. Kallmuenzer va hammualliflar tomonidan kichik va o'rta biznes menejerlari bilan olib borilgan sifat tadqiqotida mos texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarga ega ishchi kuchi raqamlashtirishni yengillashtirishi, eski tizimlar va riskdan qochuvchi tashkiliy madaniyat esa uni cheklashi ko'rsatilgan [21].

Xalqaro tahlillarda kichik firmalar uchun raqamli texnologiyalardan unumli foydalanishga ta'sir etuvchi omillar qatorida ko'nikmalar va infratuzilma alohida qayd etiladi. Jahon bankining Digital Progress and Trends Report hisobotida rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda firmalar, ayniqsa kichik biznes, raqamli vositalardan to'liq foydalanish uchun ulanish, ko'nikmalar va tashkiliy imkoniyatlarni birgalikda rivojlantirishi zarurligi ta'kidlanadi [22]. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili moliya, raqamli infratuzilma, ko'nikmalar, platformalar va institutsional servislarni alohida o'rganishdan integratsiyalashgan yondashuvga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy bo'shlig'i shundan iboratki, O'zbekiston sharoitida kichik biznes uchun mavjud davlat va xususiy infratuzilma elementlarini korxonaning rivojlanish bosqichiga mos ravishda "diagnostika – xizmatni tanlash – moliyalashtirish – bozor va logistika – ko'nikma va innovatsiya – natijani kuzatish" zanjirida yanada yaxlit tizimlashtirish va o'zaro integratsiyalash uchun ilmiy-amaliy imkoniyatlar mavjud. Shu sababli maqolada infratuzilmaning mavjudligi emas, balki uning kichik biznes uchun foydalanish qulayligi, o'zaro integratsiyasi va yakuniy iqtisodiy natijaga ta'siri markaziy baholash mezonini sifatida qabul qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida raqamlashtirish sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishni ta'minlovchi raqamli, moliyaviy, institutsional, servis, bozor-logistika va innovatsion infratuzilma elementlari tanlangan. Tadqiqot predmetini mazkur elementlarning kichik biznes faoliyati ko'lami, investitsiya faolligi, xizmatlar, eksport, bozorga kirish va unumdorlikka ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Empirik bazani 2021–2025-yillarga oid Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ko'rsatkichlari, 2025-yil bo'yicha Markaziy bank hisobotlari, Lex.uz qonunchilik bazasidagi amaldagi hujjatlar, OECD va Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha tahlillari hamda kichik biznes raqamlashtirilishiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy maqolalar tashkil etdi. Statistik ko'rsatkichlar joriy narxlarda berilgan holatlarda ularning mutlaq dinamikasi real o'sish bilan tenglashtirilmadi, rasmiy o'sish indeksleri esa alohida talqin qilindi.

Tadqiqotda tizimli va institutsional tahlil, dinamik qatorlar, tarkibiy va qiyosiy tahlil, manbalar triangulyatsiyasi hamda funksional modellash tirish usullaridan foydalanildi. 2021–2025-yillardagi ayrim ko'rsatkichlar uchun o'rtacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) hisoblandi. $CAGR = (Y_t / Y_0)^{1/n} - 1$ formulasi qo'llanib, bunda Y_t — yakuniy davrdagi, Y_0 — bazaviy davrdagi ko'rsatkich, n — davrlar soni. Ushbu hisob-kitoblar nominal qatorlar asosida amalga oshirilgani sababli narx omili va statistik qamrov o'zgarishlari ta'sirini to'liq ajratmaydi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish va maqola matnini tayyorlash jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan 10 foizgacha yordamchi vosita sifatida foydalanildi.

Tadqiqot gipotezasi quyidagicha shakllantirildi: kichik biznesni rivojlantirishda infratuzilmaning iqtisodiy samarasi uning alohida elementlari soni yoki ularga formal kirish imkoniyati bilan emas, balki ma'lumotlarning qayta ishlatilishi, xizmatlarning o'zaro integratsiyasi, tadbirkor ehtiyojiga mos manzillilik va natijaviy KPllar orqali boshqarilishi bilan belgilanadi. Ochiq ma'lumotlarda korxona darajasidagi raqamli yetuklik, servisdan foydalanish va mehnat unumdorligini bir vaqtning o'zida qamrab oluvchi uzun panel qatori mavjud emasligi sababli maqolada sun'iy regressiya natijalari keltirilmadi; xulosalar rasmiy dinamika, institutsional hujjatlar va ilmiy manbalar sintezi asosida shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznesning infratuzilmaviy ehtiyojini baholashda avvalo uning iqtisodiyotdagi real ko'lami va rivojlanish trayektoriyasini aniqlash zarur. Chunki subyektlar soni, investitsiya, xizmatlar va eksport hajmining kengayishi moliyaviy, raqamli va bozor infratuzilmasiga bo'lgan talabni parallel ravishda oshiradi. 2021–2025-yillarda kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirilgan [10].

1-jadval.

O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Yil	YAIMdagi hajmi, trln so'm	YAIMdagi ulushi, %	Asosiy kapitalga investitsiya, trln so'm	Xizmatlar, trln so'm	Eksport, mlrd AQSH doll.
2021	455,7	56,3	109,2	231,5	3,3
2022	533,1	54,3	127,6	294,2	6,2
2023	646,8	53,8	176,6	378,0	6,9
2024	789,5	53,5	265,7	477,9	9,3
2025	923,5	52,2	362,9	595,1	12,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [10].

1-jadval ma'lumotlari kichik tadbirkorlikning mutlaq ko'lami jadal kengayganini ko'rsatadi. 2021–2025-yillarda kichik biznes yaratgan YAIM hajmi 455,7 trln so'mdan 923,5 trln so'mga ko'tarilib, 2,03 marta oshgan. Hisoblangan nominal CAGR 19,3 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 56,3 foizdan 52,2 foizga, ya'ni 4,1 foiz punktiga pasaygan. Bu holatni kichik biznesning qisqarishi sifatida talqin qilish noto'g'ri: mutlaq hajm o'sayotgan bir vaqtda iqtisodiyotning boshqa segmentlari tezroq kengayishi nisbiy ulushning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun qo'llab-quvvatlash samaradorligi faqat YAIMdagi ulush bilan emas, balki unumdorlik, investitsiya, eksport va subyektlarning yiriklashuvi bilan birgalikda baholanishi lozim.

Infratuzilma nuqtai nazaridan eng yuqori dinamika kapital va bozor kanallarida ko'rinadi. Asosiy kapitalga kichik biznes investitsiyalari 109,2 trln so'mdan 362,9 trln so'mga oshib, 3,32 baravar ko'paygan; nominal



CAGR 35,0 foizni tashkil etgan. Xizmatlar hajmi 2,57 marta o'sib, yillik o'rtacha 26,6 foizlik nominal sur'atni, eksport esa 3,76 marta oshib, 39,2 foizlik nominal CAGRni shakllantirgan. 2025-yilda kichik tadbirkorlikning asosiy kapitalga jami investitsiyalardagi ulushi 61,4 foiz, xizmatlardagi ulushi 56,7 foiz, eksportdagi ulushi esa 36,6 foiz bo'lgan [10]. Bu natijalar kichik biznes uchun moliya, elektron savdo, logistika, eksport konsaltingi va raqamli servislar infratuzilmasiga bo'lgan talab ham ortib borayotganini anglatadi.

2026-yil 1-yanvar holatiga 1 201,6 mingta faol kichik tadbirkorlik subyekti mavjudligi infratuzilmaviy xizmatlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlaridan kengroq foydalanish muhimligini ko'rsatadi. Bunday ko'lamda xizmatlarni standartlashtirish, raqamli profil yaratish, davlat organlarida mavjud ma'lumotlarni qayta talab qilmaslik, biznes ehtiyojini avtomatik diagnostika qilish va tegishli xizmatlarni tavsiya etish infratuzilmaviy samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishiga aylanadi. Raqamlashtirishning afzalligi aynan tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va katta miqdordagi subyektlarga bir xil sifatdagi servislarni keng miqyosda taqdim etish imkoniyatidir.


Internetdan foydalanish ulushining 94,2 foizga yetgani raqamli infratuzilmaning talab tomoni uchun yuqori bazani shakllantirgan [7]. OECD xulosalariga ko'ra, internet qamrovining kengayishi bilan bir qatorda firmalarda raqamli vositalardan amaliy foydalanish va raqamli ko'nikmalarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud [8]. Demak, infratuzilmaviy siyosatning keyingi bosqichida "ulanish" ko'rsatkichlari bilan bir qatorda "unumli foydalanish" ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Korxona uchun internetning mavjudligi bilan birga, undan elektron savdo, CRM, raqamli buxgalteriya, elektron hujjat aylanishi, masofaviy konsalting va ma'lumotlar tahlilida samarali foydalana olish qobiliyati iqtisodiy natijadorlikni ta'minlaydi.

Moliyaviy infratuzilmada ham shunga o'xshash vaziyat kuzatiladi. 2025-yilda biznes kredit portfeli 384 trln so'mga yetgan, raqamli faktoring hajmi esa 4,4 trln so'mni tashkil etgan [11]. Raqamli faktoringning 46 foizlik ulushi debitorlik qarzlarni moliyalashtirishning platformaviy shakli kengayayotganidan dalolat beradi. Biroq kichik biznes uchun moliyaga kirish faqat resurs hajmi bilan belgilanmaydi. Ariza topshirish xarajati, garov talabi, qaror qabul qilish muddati, pul oqimlarini baholash metodikasi va kafillik mexanizmlarining qulayligi ham moliyaviy infratuzilma sifatini belgilaydi. Shu sababli tranzaksiya ma'lumotlari, elektron hisob-fakturalar va rasmiy pul oqimlaridan tadbirkorning roziligi asosida muqobil skoringda foydalanish moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Amaldagi davlat qo'llab-quvvatlash tizimining muhim jihati shundaki, moliyaviy instrumentlar, elektron platformalar va biznesga ko'mak mexanizmlari bir necha normativ-huquqiy hujjatlar orqali izchil rivojlantirib borilmoqda [12–16]. Tadbirkor nuqtai nazaridan esa ushbu institutlar va xizmatlarning o'zaro uzviyligini yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, korxona raqamli tayyorlik diagnostikasidan o'tgach, uning muammosi moliyaviy bo'lsa — mos kredit, kafillik yoki faktoring; bozor bilan bog'liq bo'lsa — elektron savdo, davlat xaridi yoki eksport kanali; boshqaruv bilan bog'liq bo'lsa — konsalting va texnologik audit; kadrlar bilan bog'liq bo'lsa — qisqa amaliy o'quv moduli avtomatik ravishda tavsiya etilishi maqsadga muvofiq. Shu tariqa davlat dasturlarida tadbirkorning aniq ehtiyojlari va rivojlanish bosqichlariga yo'naltirilgan yondashuvni yanada kuchaytirish mumkin.

Xalqaro tadqiqotlar raqamli platforma va tarmoq qobiliyatlari kichik biznesning bozor chegaralarini kengaytirishini ko'rsatadi [17; 18]. O'zbekiston sharoitida bu yondashuv, ayniqsa, hududlar uchun muhim. Hududiy kichik korxonalar uchun xaridor, yetkazib beruvchi, malakali konsultant va logistika operatorlarini topish bilan bog'liq axborot xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari mavjud. Elektron B2B maydonlari, e-commerce, logistika agregatorlari va eksport servislarini o'zaro integratsiya qilish ushbu xarajatlarni qisqartirib, geografik masofaning iqtisodiy ta'sirini kamaytirishi mumkin. Bunda platforma faqat e'lonlar doskasi sifatida emas, balki to'lov, ishonch reytingi, elektron shartnoma, logistika, faktoring va nizolarni hal qilish kabi funksiyalarni birlashtiruvchi kompleks servis sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tahlil asosida kichik biznesni rivojlantirishning infratuzilmaviy ta'minotini besh funksional bosqichdan iborat integratsiyalashgan model orqali takomillashtirish taklif etiladi. Modelning asosiy mantig'i — tadbirkordan takroriy ma'lumot yig'ishni kamaytirish, ehtiyojni raqamli diagnostika qilish, davlat va xususiy servislarni o'zaro bog'lash hamda qo'llab-quvvatlash natijalarini korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari orqali kuzatishdir.



1-rasm. Kichik biznesni rivojlantirishning integratsiyalashgan infratuzilmaviy ta'minot modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Modelning birinchi bosqichi — yagona raqamli biznes profili va infratuzilmaviy diagnostika. Bu yerda “yagona” tushunchasi barcha ma’lumotlarni bitta markaziy bazaga ko’chirishni emas, balki vakolat, rozilik va standartlar asosida turli tizimlardagi zarur ma’lumotlardan qayta foydalanishni anglatadi. Soliq, statistika, litsenziya, davlat ko’magi hamda korxonaning roziligi asosida taqdim etiladigan moliyaviy ma’lumotlardan foydalanish takroriy hujjat talablarini kamaytirishi mumkin. Diagnostika korxonaning faoliyat bosqichi, tarmog’i, hududi, moliyaviy holati, raqamli yetukligi va bozor maqsadlari bo’yicha “infratuzilmaviy ehtiyoj profili”ni shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich — maqsadli moliyaviy va servis paketi. Diagnostika natijasi asosida korxonaga universal imtiyoz emas, balki uning ehtiyojiga mos vosita taklif qilinadi. Moliyaviy blok kredit, kafillik, kompensatsiya, faktoring, lizing, aylanma mablag’ va investitsiya moliyasini; servis bloki esa buxgalteriya, huquqiy maslahat, marketing, texnologik audit, kiberxavfsizlik va boshqaruv konsaltingini qamrab oladi. Xususiy servis provayderlarini akkreditatsiya va vaucher mexanizmi orqali jalb qilish davlat va xususiy sektor xizmatlarini o’zaro uyg’unlashtirish hamda xizmat ko’rsatish samaradorligini oshirish imkonini berishi mumkin.

Uchinchi bosqich — bozor, B2B, elektron savdo va logistika integratsiyasi. Kichik biznesning o’sishi ichki samaradorlik bilan birga sotuv bozorining kengayishiga ham bog’liq. Elektron platformalarda mahsulot katalogi, davlat va korporativ xaridlar, eksport buyurtmalari, logistika tariflari, ombor xizmatlari, to’lov va faktoringni o’zaro bog’lash korxona uchun “buyurtmadan to’lovgacha” bo’lgan siklni qisqartiradi. Bu infratuzilma, ayniqsa, tuman va qishloq hududlaridagi korxonalar uchun axborot va masofa bilan bog’liq xarajatlarni kamaytiradi.

To’rtinchi bosqich — raqamli ko’nikmalar, innovatsiya va texnologik modernizatsiya. OECD O’zbekistonda firmalarga raqamli transformatsiyani qanday boshlash bo’yicha amaliy yo’naltirishni yanada kuchaytirish, shuningdek, ko’nikmalarni baholash va “one-stop-shop” formatidagi qo’llab-quvvatlashni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko’rsatadi [8]. Shuning uchun o’quv kurslari umumiy “IT savodxonligi” bilan cheklanmasdan, korxonaning konkret biznes jarayoniga — elektron savdo, CRM, raqamli moliya, ma’lumotlar tahlili, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yoki kiberxavfsizlikka bog’lanishi lozim.

Beshinchi bosqich — natijadorlik monitoringi. Infratuzilma rivojlanishining yakuniy maqsadi platformalar yoki xizmatlar sonini ko’paytirish bilan cheklanmay, korxonaning iqtisodiy natijalarini yaxshilashga qaratilishi lozim. Shu bois qo’llab-quvvatlashdan keyin sotuv va eksport, bir xodimga to’g’ri keladigan real qo’shilgan qiymat, rasmiy aylanma, yangi ish o’rinlari, kredit qarorining muddati, xizmat ko’rsatish va logistika xarajatlari, raqamli savdo ulushi kabi ko’rsatkichlar dinamikasi kuzatilishi zarur. Natijalar qayta diagnostikaga uzatilsa, tizim bosqichma-bosqich uzluksiz rivojlanish sikliga aylanadi.

Taklif etilayotgan modelning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo’ladi. Birinchidan, kichik biznes infratuzilmasi fizik va institutsional obyektlar majmui sifatida emas, balki ma’lumotdan boshlab iqtisodiy



natijagacha bo'lgan servis zanjiri sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, raqamli profil va diagnostika infratuzilmaviy resurslarni manzilli taqsimlashning boshlang'ich mexanizmi sifatida kiritiladi. Uchinchidan, davlat va xususiy infratuzilma xizmatlari "input – process – output – outcome" zanjirida natijaviy KPilar bilan bog'lanadi. Bu yondashuv qo'llab-quvvatlash samaradorligini sarflangan mablag' va ko'rsatilgan xizmatlar bilan bir qatorda yakuniy iqtisodiy natijalar asosida baholash imkonini beradi.

2-jadval

Kichik biznes infratuzilmaviy ta'minotini baholash uchun taklif etilayotgan KPI tizimi

Blok	Asosiy indikator	Baholash mazmuni
Raqamli profil va diagnostika	integratsiyalashgan profilga ega subyektlar ulushi; ma'lumotni qayta so'rash holatlari	ma'muriy va axborot xarajatlari
Moliyaviy infratuzilma	kredit/faktoring qarori muddati; kafillik va muqobil skoringdan foydalanish	moliyaga kirish va likvidlik
Biznes-servislar	one-stop servisdan foydalangan subyektlar ulushi; xizmat sifati	boshqaruv va tranzaksiya xarajatlari
Bozor va logistika	onlayn sotuv/eksport ulushi; yetkazib berish muddati va xarajati	bozor masshtablanishi
Ko'nikma va innovatsiya	raqamli biznes-ko'nikmaga ega xodimlar; yangi texnologiya joriy etgan firmalar	texnologiyani o'zlashtirish
Rasmiylashuv	elektron qayd etiladigan operatsiyalar va rasmiy aylanma ulushi	shaffoflik va formalizatsiya
Natijadorlik	bir xodimga real qo'shilgan qiymat; sotuv, eksport va bandlik o'sishi	yakuniy iqtisodiy samara

Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadvaldagi KPI tizimi infratuzilma rivojlanishini resurslar mavjudligi bilan cheklamasdan, ularning kichik biznesga ta'sir kanalini o'lchashga xizmat qiladi. Masalan, raqamli profil — input, avtomatik diagnostika va xizmat tavsiyasi — process, olingan moliyaviy yoki servis yordami — output, korxona unumdorligi, eksporti yoki rasmiy aylanmasining o'sishi esa outcome sifatida qaraladi. Bunday zanjir davlat dasturlari doirasida qaysi vositalar yuqori natijadorlikni ta'minlayotganini o'zaro taqqoslash imkonini yaratadi.

Infratuzilma siyosatining hududiy jihati ham muhim. World Bank O'zbekiston hududlaridagi elektr va transport infratuzilmasining rivojlanish darajasidagi farqlar biznes xarajatlari va hududlararo bog'liqlikka ta'sir qilishini ko'rsatadi [9]. Shuning uchun yagona respublika standartlarini hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial paketlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Logistika imkoniyatlarini yanada rivojlantirish talab etiladigan hududlarda elektron savdoni rag'batlantirishni ombor va yetkazib berish servislari bilan uyg'unlashtirish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish zarur bo'lgan hududlarda esa murakkab platformalarni joriy etish bilan bir qatorda konsultatsiya va amaliy treninglarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, infratuzilmaviy ta'minotni rivojlantirishning optimal modeli "hamma uchun bir xil yordam" tamoyiliga emas, balki korxona va hududning boshlang'ich holatiga mos differensial mexanizmga asoslanishi maqsadga muvofiq. Raqamli diagnostika aynan mana shu differensiallashtirishning axborot bazasini yaratadi. Natijada subsidiyalar, kafillik, konsalting, o'qitish va bozor servislari bir-birini takrorlamaydigan, aksincha, o'zaro to'ldiradigan paket sifatida shakllantirish mumkin.

Mazkur yondashuv O'zbekistonda amaldagi kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi bilan mos keladi [14], shu bilan birga uni raqamli ma'lumotlar integratsiyasi, xususiy servis provayderlari va outcome-KPilar bilan yanada rivojlantirishni nazarda tutadi. PF-50 va PF-176 hujjatlarida biznesning yiriklashuvi va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning natijaviy maqsadlari belgilanganligi [15; 16] infratuzilma samaradorligini ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan bir qatorda korxonalarning barqaror o'sish bosqichiga o'tishi kabi yakuniy natijalar asosida baholash uchun institutsional asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning mutlaq iqtisodiy ko'lami 2021–2025-yillarda jadal kengaydi. Kichik biznes yaratgan YAIM hajmi 2,03 marta, asosiy kapitalga investitsiyalar 3,32 marta, xizmatlar hajmi 2,57 marta va eksport hajmi 3,76 marta oshgan. Shu bilan birga, YAIMdagi ulushning 56,3 foizdan 52,2 foizga pasayganligi rivojlanish samaradorligini faqat nisbiy ulush bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatadi [10].

Kichik biznes subyektlari sonining 1,2 milliondan oshgani infratuzilmaviy xizmatlarni raqamlashtirish,

standartlashtirish va idoralararo muvofiqlashtirish imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish muhimligini ko'rsatadi. Raqamli profil, ma'lumotlardan qayta foydalanish va avtomatik diagnostika katta miqyosdagi subyektlarga servislarni keng ko'lamda taqdim etishning muhim shartiga aylanadi.

Internet qamrovining 94,2 foizga yetishi raqamlashtirishning bazaviy texnik shartini yaratgan bo'lsa-da, korxonalarda raqamli ko'nikmalar va vositalardan amaliy foydalanishni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud [7; 8]. Shu sababli keyingi bosqichda ulanish ko'rsatkichlari bilan bir qatorda raqamli texnologiyalarni biznes qiymatiga aylantirish ko'rsatkichlariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Moliyaviy infratuzilma raqamli yo'nalishda chuqurlashmoqda: 2025-yilda raqamli faktoring 4,4 trln so'mga yetib, jami faktoringning 46 foizini tashkil etgan [11]. Bu kichik biznes uchun muqobil skoring, elektron hisob-faktura, faktoring va kafillik vositalarini o'zaro bog'lash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Davlat tomonidan kichik biznesni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlashning keng instrumentlari yaratilgan [12–16]. Ularni yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri mavjud xizmatlarni tadbirkorning aniq ehtiyojlari va rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o'zaro integratsiyalashdan iborat.

Infratuzilmaning raqamli, moliyaviy, servis, bozor-logistika va ko'nikma elementlari bir-birini to'ldiruvchi komplementar tizimni tashkil etadi. Ushbu elementlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi ularning iqtisodiy samarasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli alohida loyihalarni integratsiyalashgan servis zanjiri asosida o'zaro bog'lash maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan integratsiyalashgan model kichik biznesni qo'llab-quvvatlashni "raqamli profil va diagnostika – maqsadli moliyaviy va servis paketi – bozor-logistika integratsiyasi – ko'nikma va innovatsiya – natijadorlik monitoringi" ketma-ketligida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, qo'llab-quvvatlash manzilliligini oshirish va xizmatlarni natijalar bilan bog'lash imkonini beradi.

Infratuzilmaviy siyosatning yakuniy KPllarini platformalar soni, ajratilgan mablag' yoki o'qitilganlar soni bilan bir qatorda yakuniy iqtisodiy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan ham to'ldirish maqsadga muvofiq. Bir xodimga to'g'ri keladigan real qo'shilgan qiymat, rasmiy aylanma, eksport, bozorlarga kirish, logistika va kredit qarori bilan bog'liq xarajatlar, biznesning yashovchanligi va yiriklashuvi yakuniy outcome ko'rsatkichlari sifatida qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. The Digital Transformation of SMEs // OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship. – Paris: OECD Publishing, 2021. – DOI: 10.1787/bdb9256a-en.
2. Eller R., Alford P., Kallmünzer A., Peters M. Antecedents, consequences, and challenges of small and medium-sized enterprise digitalization // Journal of Business Research. – 2020. – Vol. 112. – P. 119–127. – DOI: 10.1016/j.jbusres.2020.03.004.
3. Li L., Su F., Zhang W., Mao J.-Y. Digital transformation by SME entrepreneurs: A capability perspective // Information Systems Journal. – 2018. – Vol. 28, No. 6. – P. 1129–1157. – DOI: 10.1111/isj.12153.
4. Dörr L., Fliege K., Lehmann C., Kanbach D. K., Kraus S. A taxonomy on influencing factors towards digital transformation in SMEs // Journal of Small Business Strategy. – 2023. – Vol. 33, No. 1. – P. 53–69. – DOI: 10.53703/001c.66283.
5. Sagala G. H., Öri D. Toward SMEs digital transformation success: A systematic literature review // Information Systems and e-Business Management. – 2024. – Vol. 22. – P. 667–719. – DOI: 10.1007/s10257-024-00682-2.
6. Restrepo-Morales J. A., Ararat-Herrera J. A., López-Cadavid D. A., Camacho-Vargas A. Breaking the digitalization barrier for SMEs: A fuzzy logic approach to overcoming challenges in business transformation // Journal of Innovation and Entrepreneurship. – 2024. – Vol. 13. – Art. 84. – DOI: 10.1186/s13731-024-00429-w.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston aholisining 94,2 foizi internetdan foydalanadi [Elektron resurs]. – 2025. – 29-sentabr.
8. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2023. – DOI: 10.1787/6c54f447-en.
9. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. – Washington, DC: World Bank, 2025.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari: 2025-yil yanvar–dekabr [Elektron resurs]. – Press-reliz. – 2026. – 26-yanvar.
11. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report 2025. – Tashkent: Central Bank of the Republic of Uzbekistan, 2026.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6658633> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-son "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6663044> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-sentabrdagi PQ-312-son "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7093832> (murojaat sanasi: 14.08.2026).



15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7444738> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-sentabrdagi PF-176-son "Tadbirkorlik subyektlarini yangicha yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7746045> (murojaat sanasi: 14.08.2026).
17. Cenamor J., Parida V., Wincent J. How entrepreneurial SMEs compete through digital platforms: The roles of digital platform capability, network capability and ambidexterity // *Journal of Business Research*. – 2019. – Vol. 100. – P. 196–206. – DOI: 10.1016/j.jbusres.2019.03.035.
18. Elia S., Giuffrida M., Mariani M. M., Bresciani S. Resources and digital export: An RBV perspective on the role of digital technologies and capabilities in cross-border e-commerce // *Journal of Business Research*. – 2021. – Vol. 132. – P. 158–169. – DOI: 10.1016/j.jbusres.2021.04.010.
19. World Bank. Uzbekistan Digital Inclusion Project (P179108): Project Appraisal Document. – Washington, DC: World Bank, 2023.
20. OECD. Insights on the Business Climate in Uzbekistan. – Paris: OECD Publishing, 2023. – DOI: 10.1787/317ce52e-en.
21. Kallmuenzer A., Mikhaylov A., Chelaru M., Czakon W. Adoption and performance outcome of digitalization in small and medium-sized enterprises // *Review of Managerial Science*. – 2025. – Vol. 19. – P. 2011–2038. – DOI: 10.1007/s11846-024-00744-2.
22. World Bank. Digital Progress and Trends Report 2023. – Washington, DC: World Bank, 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100